

## Axborot qabul qiluvchilar

Biz predmetlarni ko'rish, ularni qo'l bilan ushlash, hidini hidlash, tovushini eshitish, mazasini tatib ko'rish orqali atrofimizdagi olam haqida axborotlarga ega bo'lamiz.

**Axborot qabul qiluvchi  
axborot oluvchi obyektdir.**

**Axborot har doim axborot  
manbayidan axborot qabul  
qiluvchiga uzatiladi.**



**axborot  
manbayi**

Salom, Aziza!  
Ustoz va  
murabbiylar kuni  
munosabati bilan  
ustozlar haqida  
she'r yodlashimiz  
kerak.



**axborot qabul  
qiluvchilar**

Aziza va mobil telefon – **axborot qabul qiluvchilar**.  
Telefon axborotni signal shaklida, Aziza esa tovush shaklida  
qabul qiladi.



- Rasmdagi qaysi obyektlar **axborot qabul qiluvchilar**, qaysilari **axborot manbayi** hisoblanadi?



- Bir vaqtning o'zida o'zingiz ham axborot qabul qiluvchi, ham axborot manbayi bo'la oladigan vaziyatni o'ylab toping.



- Savollarga javob bering.

- Axborot qabul qiluvchilar deb nimalarga aytildi?
- Axborot qabul qiluvchini qanday aniqlash mumkin?

